

O'ZBEK TILINING LUG'AT TARKIBI

Ro'ziyeva Nigina San'at qizi ¹
Durmatova Nilufar Shuhratovna ¹

¹ Shahrizabz davlat pedagogika
instituti pedagogika fakulteti boshlang'ich ta'lim yo'nalishi
1-kurs 1/24-guruh talabalari

**MAQOLA
MALUMOTI****ANNOTATSIYA:****MAQOLA TARIXI:**

Received:24.05.2025

Revised: 25.05.2025

Accepted:26.05.2025

KALIT SO'ZLAR:

leksikologiya,
semasiologiya, etimologiya,
leksikografiya, leksika,
faol so'zlar, nafaol so'zlar,
neytral so'zlar, dialektizm,
eskirgan so'zlar,
neologizm, sotsial
chegaralangan so'zlar.

Mazkur maqolada o'zbek lug'at tarkibini o'rganadigan leksikologiya bo'limi haqida so'z boradi. Shuningdek, leksikologiya bilan bog'liq til bo'limlari, bugungi o'zbek tilining lug'at tarkibini tashkil etuvchi bir qancha turkumlar haqida fikr yuritiladi.

KIRISH. O'zbek tilining lug'at tarkibini o'rganadigan bo'lim leksikologiya bo'limi hisoblanadi. Leksikologiya so'zi grekcha so'z bo'lib, „lexikos“ — „lug'atga oid“, „logos“ — „ta'limot“ ma'nosini bildiradi. Leksikologiya so'zi tarkibida leksika tushunchasi ham yotadi. Leksika tilda mavjud bo'lgan so'z va iboralar jamlanmasini tashkil etadi.

Leksikologiya tilning lug'at tarkibini ikki tomonlama: 1) ichki va 2) tashqi tomondan tekshiradi. Tilning lug'at tarkibini ichki tomondan o'rganadigan sohasi semasiologiya deb yuritiladi. (Semasiologiya — grekcha semasio– „belgi“, „tamg'a“ va logos– „ta'limot“ ma'nolarini ifodalaydi.) Unda so'z va iboralarining nutqda ma'no ifodalashi xususiyati o'rganiladi. Har qanday so'z tilda paydo bo'lishi bilan o'zining shakli va ma'nosiga ega bo'ladi, borliqdagi predmet, hodisa, belgi, harakatlarni ifodalaydi. So'zdagi ma'no turli ta'sir va talablar asosida taraqqiy etib boradi. Demak, semasiologiya so'z hamda turg'un

iboralarning ma'no xususiyatlarini tekshiradi. Leksikologiya tashqi tomondan lug'at tarkibining hozirgi ahvolini, tilning lug'at tarkibida sodir bo'layotgan turli o'zgarishlarni: so'zlarning qo'llanish darajasini, ba'zi so'zlarning eskirib iste'moldan chiqib ketishini (sekretar, oblast kabi), fan, madaniyat va texnikaning uzluksiz rivojlanishi bilan tilning yangi so'zlar hisobiga boyishini, ba'zi so'zlar ma'nosida sodir bo'ladigan o'zgarishlarni (ma'no ko'chish hodisasini) o'rganadi.[1]

Leksikologiya bo'limining o'zi ham bir necha tarmoqlarga ajraladi. Bulardan biri etimologiya sohasi hisoblanadi. (Etimologiya – grekcha „etymon“ — haqiqat, „logos“ — ta'limot ma'nolarini anglatadi.) Bu bo'lim so'z va iboralarning tarixan kelib chiqishini, yasama va o'zlashma so'zlarning ma'noli qismlarini izohlab beradi. Bundan ko'rinadiki, etimologiya so'zning har ikkala tomonini ham, ya'ni ichki – ma'no tomonini va tashqi – tovush tomonini ham o'rganadi.

Leksikologiyaning yana bir muhim sohasi leksikografiya sanaladi. Leksikografiyaning asosiy vazifasi tildagi so'zlarni yozma holda to'plashdir. Leksikografiya so'z va iboralarni ma'lum bir sohalar yuzasidan jamlab, tartibga keltiradi. (alifbo tartibiga soladi, so'ng lug'at kitoblari shaklida nashr etadi.)

Leksikologiya tilning bir qancha bo'limlari bilan chambarchas bog'liq. Jumladan, fonetika, grammatika kabi bo'limlar. Bulardan biri – fonetika nutq tovushlarini o'rganadi. Leksika esa shu tovushlar asosida hosil bo'ladigan so'zni, grammatika bo'lsa o'z qonun-qoidalari bilan so'zlarni o'zaro bog'laydi va tilni fikr ifoda etish uchun tayyorlaydi. Ushbu jumladan shunday xulosa kelib chiqadiki, tovushsiz so'zni, so'zsiz grammatikani hosil qilish imkonsiz. Ma'lumki, kishi tilning lug'at tarkibidan o'z maqsadiga mos tarzda foydalanadi. Bu leksikologiyaning uslubiyat bilan o'zaro bog'liqligini ifodalaydi.

Hozirgi o'zbek tilining lug'at tarkibi o'zbek tilining butun tarkibiy taraqqiyoti davomida shakllangan. Tildagi so'zlarning paydo bo'lish davri va kelib chiqish manbalari ham har xil. So'zlarning paydo bo'lish manbalaridan qat'i nazar, o'zbek millatiga mansub kishilar tilida qo'llanadigan barcha so'zlar o'zbek tilining lug'at boyligini tashkil etadi. Demak, tildagi barcha so'zlar yig'indisi lug'at tarkibini tashkil etadi. Tilning lug'at tarkibi qanchalik boy bo'lsa, unda fikrni mukammal ifodalash imkoniyati mavjud bo'ladi. Tilning lug'at tarkibi jamiyat taraqqiyoti jarayonida boyib boradi va o'zgarib turadi, ya'ni ayrim so'zlar ehtiyojining yo'qligi yoki uning o'rnini bosadigan so'zning yuzaga kelishi bilan iste'moldan chiqib ketadi, yangi tushunchalarni ifoda etadigan so'zlar kirib keladi.[2]

Bugungi o'zbek tilining lug'at tarkibi quyidagi turkum so'zlardan iborat:

1. Kundalik turmushda foydalaniladigan so'zlar:

- oziq-ovqatga oid bo'lgan narsalarning nomlari : go'sht, olma, anor, sut, non, tuz, shakar, manti, somsa, yog', karam.
- narsa-buyum, qurol nomlari: daftar, ruchka, shkaf, bolta, arra, kosa, likopcha, vertolyot, samolyot, chelak.

- tabiiy borliqqa doir nomlar: sayyoralar, togʻ, adir, qir, dengiz, okean, kun, tun, oʻsimliklar dunyosi, boʻron, toʻfon, tosh, qum.
- tirik mavjudotlar va ularning tana aʼzolari nomlari : inson, ayol, erkak, qiz, oʻgʻil, doʻst, laylak, qaldirgʻoch, uy hayvonlari, yovvoyi hayvonlar, hasharotlar, qoʻl, oyoq, koʻz, quloq, burun, bosh, barmoq.
- qarindoshlikka oid nomlar: bobo, buvi, ota, ona, aka, singil, opa, uka, xola, pochcha, togʻa.
- jamiyatga tegishli nomlar: davlat, mamlakat, yurt, vazirlik, tashkilot, zavod, fabrika, xalq, millat.
- harakatni ifodalovchi soʻzlar: soʻzlam, yurmoq, bormoq, sakramoq, tozalamoq, kulmoq, dodlamoq.
- miqdor bildiruvchi soʻzlar: koʻp, oz, kam, bir, ikki, uch, oʻn, yigirma, yuz, ming, million.
- olmoshlar: men, sen, u, ana shu, kim, nima, qachon, jami, har bir, hech kim.
- holat va belgini ifodalovchi nomlar: aqlli, odobli, shirin, nordon, uzun, qisqa, yashil, sariq, chopqir, tezkor, zukko.

2.Kasb-hunarga oid soʻzlar: oʻqituvchi, haydovchi, tikuvchi, toʻquvchi, shifokor, soatsoz, tarjimon, jurnalistika.

3.Jamiyat rivoji bilan bogʻliq holda paydo boʻlayotgan soʻzlar: biznesmen, blogger, intervyu, marketing.

4.Isteʼmoldan chiqib ketgan va chiqib ketayotgan soʻzlar: sekretar, oblast, jallod, rayon.

5.Fan-texnikaga oid soʻzlar: soʻz, gap, algoritm, tenglama, koordinata oʻqi, hujayra, laboratoriya.

6.His-tuygʻularni ifodalovchi soʻzlar: ofarin, barakalla, rahmat, oh, voh.

7.Shevaga oid soʻzlar: inak (sigir), satil (chelak), et (goʻsht), soʻri (ishkom).

8.Jargon va afgʻonlar: yakan (pul), otar (toʻy), olam panoh, oftobi olam.

Oʻzbek tilining leksikasi tarkibidagi soʻzlar qoʻllanilish doirasiga koʻra chegaralanmagan va chegaralangan soʻzlarga boʻlinadi. Umumxalq tilida keng qoʻllaniladigan va shu yoʻlda soʻzlashuvchilarning barchasi uchun tushunarli boʻlgan soʻzlarga qoʻllanilish doirasi chegaralanmagan soʻzlar deyiladi. Ular neytral leksika atamasi hamda faol lugʻat atamasi bilan ham yuritiladi. Qoʻllanilish doirasi chegaralangan soʻzlar nafaol lugʻat yoki nafaol soʻzlar atamasi bilan ham nomlanadi.

Bunday soʻzlarni quyidagi guruhlariga boʻlish mumkin:

- 1.Hududiy chegaralangan soʻzlar (dialektizmlar).
- 2.Sotsial chegaralangan soʻzlar.
- 3.Eskirgan soʻzlar.
- 4.Neologizmlar.

5. Atamalar.

6. Kasb-hunarga doir soʻzlar.[3]

Bugungi kunda oʻzbek tilining lugʻat tarkibi bir necha asosiy yoʻnalishlar orqali boyib bormoqda. Jumladan, yangi terminlarning kirib kelishi, soʻz olish, soʻz yasash, ijtimoiy tarmoqlar va ommaviy madaniyat taʼsiri hamda dialektik va xalq ogʻizaki ijodidan kirib kelayotgan soʻzlar bilan oʻzbek tili leksikasida rang-baranglik oshmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. M. Hamroev, D. Muhammedova, D. Shodmonqulova, X. Yoʻldasheva „Ona tili“ — Toshkent 2008

2. <https://azkurs.org>

3. Nargiza Erkaboyeva „Oʻzbek tilidan maʼruzalar toʻplami“ — Toshkent 2021

